

## ISLOM MOLİYASI VA SANOAT SIYOSATI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Olimjonova Muniraxon Ahadjon qizi

*Bank moliya akademiyasi Davlat moliyasi va xalqaro moliya yo'nalishi  
magistranti,*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada Islom moliyasi haqida uning istiqbollari borasida, shuningdek islom moliyasi va sanoat siyosati o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Islom moliyasi, islohot, iqtisodiyot, jahon bozori, banklar, eksport salohiyati, moliya tizimi.*

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadal kirib borish xalqaro moliya munosabatlarini barqaror rivojlantirishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda jahonda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish tarmog'i tez rivojlanib borayotgan va moliyaviy ommaboplikni rivojlantirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalarda biri hisoblanadi. Shu bilan birga aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar uchun islom moliyasi tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islom moliy instrumentlari orqali moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investisiya fondlari va korxona hamda tashkilotlar mablag'larini davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llabquvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatt milliy iqtisodiyotimizga yangicha qarashlar va ilmiy izlanishlar olib boorish lozim, chunonchi, an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi hozirgi davrda muhim va dolzarb hisoblanadi.



Islom moliyasi jahon olimlari va moliya institutlari tomonidan keng oʻrganilgan boʻlib, oʻrganish darajasi yanada ortib bormoqda. Xususan Mahdi va Abbes Islom bank ishi soʻnggi oʻttiz yil ichida keng miqyosda rivojlanib kelayotganligiga eʼtibor qaratgan. Buni banklar va filiallar soni hamda investitsiya qilingan kapital miqdori tobora ortib borayotgani bilan izohlagan. Nagayev va boshqalar oʻzlarining izlanishlari natijasida Shariatga mos keladigan aksiyalar anʼanaviy kapital va qatʼiy daromad bozorlari uchun muhim raqobatchi instrumentga aylanganini taʼkidlashgan. Islom fond bozori indekslariga nisbatan qiziqish 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin sezilarli darajada ortdi. Kalimullinay oʻz maqolasida Rossiyada islom moliya bozorining rivojlanishini, uning tartibga solinishi va asosiy toʻsiqlari, infratuzilmasining rivojlanishi, geografik qamrovi, mavjud bozor ishtirokchilari va uning mahsulot assortimenti, bozor hajmi va prognozi, shuningdek, yangi tashabbuslarni oʻrganadi va Islom moliya institutlari va mahsulotlari bozor imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi degan fikrni ilgari surgan. Gambeeva va Medvedevalar oʻzlarining ilmiy maqolalarida islom moliya tizimini rivojlantirishning asoslari va tendentsiyalari, islom moliya institutlari faoliyati tamoyillari, shuningdek, islom moliya tizimida qoʻllaniladigan moliyaviy vositalar muhokama qilinadi hamda islom va anʼanaviy banklarning oʻziga xos xususiyatlar iqtisodiy tahlil qilganlar.

Islomiy banklar mijoz talabi bilan obektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi. Zamonaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul boʻlib, bunga soliq hamda bank faoliyatiga taalluqli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar toʻsquinlik qiladi. Islomiy banklarning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iboratdir:

- aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish;
- ishlab chiqarish korxonalari va loyihalariga qarzlarni berish;
- aʼzo-davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi maqsadida boshqa shakllarda moliyaviy yordam berish;
- aniq maqsadlar uchun tuziladigan maxsus fondlarni boshqarish. Nomusulmon davlatlardagi musulmon jamoalariga yordam fondi shular jumlasidan;
- moliyaviylashtirish uslublari vositasida moliyaviy resurslar yoʻnaltirish va depozitlarini qabul qilish;
- aʼzo-davlatlarga texnik yordam koʻrsatish;
- musulmon davlatlarning rivojlanishi boʻyicha tashkilot aʼzolarini oʻqitishda xizmatlar koʻrsatish;



- bepul kreditlar berish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha amallarda Islomiy Tijorat Banki (ITB) hech qanday foizli to'lovlarsiz iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi. Ushbu bankning birdanbir maqsadi esa a'zo mamlakatlarning, shariatga asoslangan musulmon jamoalarining, iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

Bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan moliya tizimida islom moliyasini o'rni muhim ahamiyat kasb e'tadi. Bunga qo'shimcha qilish mumkinki hozirga kunda nafaqat musulmon aholisi ko'p mamlakatlar balki no musulmon davlatlar ham bunga qiziqish uyg'otmoqda balki o'z moliya tizimiga tadbiq qilayotkanini ko'rishimiz mumkin. Investormonitoring sayiting ma'lumotlariga ko'ra, global islom moliya sanoati taxminan 4 trillion dollarga teng. Haqiqatan ham, hisobotga ko'ra, bu ko'rsatkich 2026 yilga kelib 6 trillion dollargacha ko'tariladi. 2021 yilda islomiy bank faoliyati global islom moliya aktivlarining qariyb 70 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi yirik segment bu sukuk (shariatga mos keladigan qarz kapitali bozori vositalari), 18% ni, Islom fondlari esa uchinchi o'rinda, taxminan 4% ni tashkil qiladi.

Islom moliyasi an'anaviy moliya tizimidan farqli o'laroq, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatga katta e'tibor qaratadi. Ushbu moliyaviy tamoyillar foizsiz moliyalashtirish, boylikni adolatli taqsimlash va zarar ko'rish va foyda olishda sheriklik qilishni o'z ichiga oladi.

Islom moliyalari va sanoat siyosati o'rtasidagi munosabatlar juda muhim va kompleksdir. Islom moliyasi, asosan, shariat qonunlariga asoslangan moliya tizimi bo'lib, unda foiz (riba) olish taqiqlangan va investitsiyalar etika va ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan baholanadi. Sanoat siyosati esa davlatning iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalari to'plamidir.

#### Islom Moliya Tizimi

1. Foiz Taqiqlanishi: Islom moliya tizimida foiz olish taqiqlanganligi sababli, moliya institutlari daromadlarini boshqa usullar orqali (masalan, tijorat faoliyati yoki investitsiyalar orqali) oshirishga harakat qilishadi.

2. Tijorat Shartnomalari: Moliya institutlari tijorat shartnomalarini tuzishda halol va shaffof bo'lishi kerak. Bu esa sanoat sohasida investitsiya qilishda ishonchni oshiradi.

3. Riskni Bo'lishish: Islom moliyasi risklarni bo'lishishga asoslangan - bu investorlar va tadbirkorlar o'rtasida riski bo'lishishni ta'minlaydi.

#### Sanoat Siyosati



1. Investitsiya Muhitini Yaratish: Davlat sanoat siyosatini ishlab chiqishda islom moliyasining prinsiplariga mos keladigan sarmoya kiritish muhitini yaratishga intiladi.

2. Ijtimoiy Mas'uliyat: Sanoat siyosati ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olishi kerak - ya'ni ishlab chiqarishda inson huquqlariga hurmat qilinishi zarur.

3. Barqaror Rivojlanish: Sanoat siyosati barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam berishi lozim, bu esa ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi.

O'zaro Ta'sirlar

- Moliya Va Investitsiyalar: Islom moliyasi sanoat investitsiyalarini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Halol sarmoyalar orqali sanoat sektori rivojlanadi.

- Sifatli Ish O'rinlari Yaratuvchi: Islom moliyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihalar ko'p hollarda sifatli ish o'rinlarini yaratishga olib keladi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

- Innovatsiyalar Va Rivojlanish: Islom moliyasining yangilanishi innovatsion loyihalarga e'tibor qaratishni talab qiladi, bu esa sanoatda yangi texnologiyalarni joriy etishga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, islom moliyasi va sanoat siyosati o'zaro bog'liq bo'lgan sohalaridir va ularning samarali integratsiyasi iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aminova, N. (2024). INVESTITSIIYA LOYIHALARINI ISLOM MOLIIYASI DOIRASIDA FINTECH ORQALI MOLIIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 4(1), 193–200.

2. Astanakulov O. Islom moliyasi asoslari: taraqqiyot bosqichlari, istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabroktabr, 2021 yil.

3. Муфти Мухаммад Такий Усмоий (2023) “Ислом молиясига кириш”, 6-120 бетлар.

4. Жаҳонгир Имамназаров (2020) “Ислом молияси маҳсулотларини Ўзбекистонда татбиқ қилиш ва қўллаш юзасидан ўтказилган тадқиқот натижалари бўйича таҳлилий ҳисобот”, 36-38 бетлар.

5. DinarStandard and Elipses (2022) Global Islamic Fintech Report, 41-бет

6. Siddiqui, A. (2008). Financial contracts, risk, and performance of Islamic banking. Managerial Finance, 34(10), 680-694

